

Mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirishda muammolari va uning yechimlari

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchi

PhD Ismatov Xolbuta Begmatovich


Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy mazmuni va yuzaga kelish iqtisodiy shart-sharoitlari soliq-budjet tizimini samaradorligini ta'minlash hisoblanadi. Har qaysi mamlakatning iqtisodiy siyosatida soliq siyosati o'ta muhim rol o'ynaydi. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'nalishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Soliq, soliq munosatlari, soliq siyosati, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi, soliq imtiyozlari, soliq siyosati yo'nalishlari, davlat budjeti, soliq ma'murchiligi, soliq yuki.

Kirish: Davlatning ichki moliyaviy siyosatining mazmunida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularni taqsimlash bilan bog'liq munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu esa davlatning iqtisodiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati bilan bog'liq. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'nalishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, soliq siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirish va uning samaradorligi baholash o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, uning yo'nalishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish dolzarb masalalardan sanaladi.

Soliq tizimini zamonaviy baholashda ikkita asosiy va umumiy tamoyillar

birinchi o'ringa chiqadi: iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat. Bu tamoyillar zamonaviy soliq siyosatining asosi bo'lib xizmat qiladi. J.Stiglis tomonidan ta'kidlanganidek, "bu muammoning savollari ko'p hollarda yetarlicha o'ziga xos va tushunish uchun qiyin hisoblanadi"¹. Ushbu jihat soliq siyosatini tushunish uchun asos ekanligini hisobga olsak, muhim amaliy qiziqish chuqur ilmiy o'rganishni talab qiladi. Islohotlarni amalga oshirish ma'lum vaqtni talab qilishini hisobga olib, vaqt o'tishi bilan davomiyligi va cho'zilishiga qarab, qisqa, o'rta va uzoq muddatli soliq islohotlariga ajratiladi, ularning barchasi ularni amalga oshirish algoritmi bilan birlashtirilgan (1-rasmga qarang).




1-rasm. Soliq islohotini o'tkazishning shartli algoritmi.²

Tushunchalar apparatini shakllantirish mantig'iga asoslanib, "samarali soliq siyosati" atamasi bir-birini uyg'un ravishda to'ldiradigan ikkita jihatni o'zichiga oladi.

¹ Стиглиц Дж. Экономика государственного сектора. М.: МГУ, ИНФРА-М, 1997. С. 471.

² Muallif tomonidan muallif tomonidan xorijiy tajribani o'rganish asosida tuzilgan



2-rasm. Samarali soliq siyosatini tushunish.³

Ortiqcha soliq yukini baholash asosida iste'molchi to'lashga tayyor bo'lgan narx va haqiqiy narx o'rtasidagi farq tufayli iste'molchi tomonidan olingan iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining sof farovonligining ko'rsatkichi sifatida berilgan iste'mol foydasi (rentasi) konsepsiyasi nazariyasi yotadi. Soliq to'lovchilar uchun yo'qotish bo'lib, bu iste'molchining shaxsiy daromadining pasayishiga ta'sir qiladigan ortiqcha soliq yuki o'lchanadigan, "Marshall uchburchagi deb ataladigan shtrixlangan AVS uchburchagi maydoniga teng rentaning bir qismi hisoblanadi"⁴.

Shuningdek, "adolatli soliq siyosatining eng sodda va ishonchli mezonlari daromad va boylikni taqsimlashdagi tengsizlik darajasining pasayishi bo'lib, uni baholash uchun detsil koeffitsiyenti va "Jinni koeffitsiyenti qo'llaniladi, soliqdan oldingi va keyingi daromadlar koeffitsiyentlarining umumiy qiymatlarini taqqoslash soliq siyosatining adolat tamoyiliga rioya qilish tengsizligini kamaytirishga ta'sirini baholashga imkon beradi"⁵.

Bunda, detsil koeffitsiyenti eng boy odamlarning 10% va eng kambag'al shaxslarning 10% daromadlarining nisbati sifatida hisoblanadi. Jinni koeffitsiyentini hisoblash uchun jami soliq to'lovchilarni daromadlari teng ravishda o'sib boradigan o'nta teng guruhga bo'lish va soliq to'lovchilarning i-guruhi daromadlarining umumiy daromaddagi ulushini aniqlashi kerak.

Daromad va boylik taqsimotining tengsizligi sababli soliq siyosatining adolatliligini amaliy baholashning obyektiv qiyinchiliklariga qaramay, detsil

³ Muallif tomonidan muallif tomonidan xorijiy tajribani o'rganish asosida tuzilgan

⁴ [Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе](#) М.: Дело Лтд, 1996. - 687 с.

⁵ Гончарова Т. М. Высшая математика. Приложения определенного интеграла: учебно- методическое пособие для студентов экономических специальностей. МГУП. 2010. – 32 с

koeffitsiyentini hisoblash asosida (10% boy va 10% kambag'allar daromadlarning nisbati), Jinni koeffitsiyentini (jami soliq to'lovchilarni daromadlarning o'sishi bo'yicha 10 ta teng guruhlariga bo'linishini hisobga olgan holda) quyidagi formula bo'yicha hisoblash imkoniyati mavjud:

$$K_g = 110 - 0.2 \sum_{i=1}^{10} d_i, \text{ bunda:}$$

K_g - Jinni koeffitsiyenti;

d_i - i-guruh daromadlarining umumiy daromaddagi ulushi.

Muammo shundaki, bu zona Lafferning taqiqlangan zonasiga to'g'ri kelmaydi, u uning chap tomonida joylashgan bo'lib, Lafferning so'zlariga ko'ra normal zonaga to'g'ri keladi: R_1 dan R_2 gacha. Shunday qilib, qo'shimcha "soliq tuzog'i" paydo bo'ladi, bu soliq yukini uning yuqori chegaralaridan ancha pastroqqa o'rnatishni talab qiladi. Ko'rib turganimizdek, "fiskal qarama-qarshiliklar zonasi"ning mavjudligi oddiy masshtab zonasining sezilarli darajada torayishiga olib keladi. Soliq siyosati soliq yukini uning yuqori chegarasidan ancha past darajada – "fiskal qarama-qarshiliklar zonasi" ning chap chegarasida, ya'ni 1-turdagi Laffer nuqtasiga iloji boricha yaqinroq o'rnatishga qaratilishi kerak.

Optimal soliq yuki - bu soliqlarning fiskal va tartibga solish funksiyalarining muvozanatli kombinatsiyasini ta'minlashga, davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarining murosaga kelishiga imkon beradigan soliq undiruvlari darajasidir. Optimal soliq yukining (R_{opt}) hajmi 2.6-rasmdagi fiskal qarama-qarshiliklar zonalarining chap tomonida bo'lishi kerak, ya'ni $R_{opt} \leq R_1$ yukiga mos kelishi kerak, chunki R_1 nuqtasining o'ng tomonida qo'shimcha soliq tuzog'ining ta'siri paydo bo'ladi. Ushbu maqbul shart davlat soliq siyosatining asosi bo'lishi kerak. Yukni sezilarli darajada kamaytirish R_1 budjet uchun xavf tug'diradi, chunki egri chiziqdan pastga siljish budjet tushumining yanada pasayishini ta'minlaydi va yuqoriga siljish maqbul emas, chunki bu iqtisodiyot uchun qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Optimal soliq yukini aniqlash muammosi Laffer nazariyasida o'z aksini topmasada, garchi 1 va 2-turdagi Laffer nuqtalarini yetarli miqdorda aniqlash muammosi hali ham dolzarb bo'lib qolsada, zamonaviy yondashuvlar ma'lum

darajada bo'shliqni to'ldirishga imkon beradi. Natijada, soliq tizimining isloh qilinishi zarurligi to'g'risida signal bo'lishi kerak bo'lgan soliq yukining maksimal chegarasiga erishish belgilarini o'z vaqtida aniqlash zaruriyati yuzaga keladi.

Zamonaviy "ilmiy xulosalar soliq yukining yuqori chegara darajasiga yaqinlashishning quyidagi belgilarini aniqlaydi:

- soliq stavkalarining o'sishi davlat budjetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi;
- investitsiyalar, ish o'rinlari soni qisqaradi va umuman mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'ati pasayadi;
- soliq to'lashdan bo'yin tovlash darajasi oshadi.

Xulosa va takliflar:

O'zbekistonda davlatning soliq siyosati va uning strategik va taklik yo'nalishlarini amalga oshirishdagi muammolarning yechimlari va mavjud mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida tadqiqot ishimizning ilmiy yangiliklarini o'zida aks ettiruvchi quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi: ya'ni, (1) yillik budjet parametrlarini tasdiqlash va u orqali har yili ma'murchilikka kiritiladigan tez-tez o'zgarishlar o'rniga, o'rta va uzoq yillarga mo'ljallangan budjet daromadlari, soliq siyosati strategiyasini tasdiqlab borish, bunda, yil davomida qabul qilinadigan qonun, farmon, qarorlar bilan soliq siyosati va ma'murchiligiga kiritiladigan har qanday qo'shimcha va yangiliklar yilning turli oylarida emas, faqat yilning boshidan (yoki 1-iyuldan kiritilishi) aniq o'zgarmas sanasini Soliq kodeksi bilan belgilab qo'yish, yangiliklarni dastlab ma'lum sohadan, undan keyin keng jabhada joriy etish, (2) soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirishda soliq yuki va soliq rejimlarini bixillashtirish, shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, (3) mahalliy budjetlar mustaqilligini yanada oshirish, jumladan soliq turlaridan mahalliy budjetlarga ajratmalarni yuqoridan pastga belgilab berishdan bosqichma-bosqich voz kechgan holda, quyi darajada vakolatini kengaytirish kabi soliq siyosatining strategik va taktik mazmundagi choralarni amalga oshirish O'zbekiston soliq tizimida davlatning soliq siyosatining mazmunini ilmiy-amaliy

jihatdan takomillashuviga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

X.B.Ismatovning Soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.